

**AMIR TEMUR DAVRIDA SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHI
BOSQICHLARI**

Shahrisabz davlat muzey- qo'riqxonasi

Kunchiqar filiali mudiri

Jalilov Asqar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur hukmronligi davrida savdo aloqalarining rivojlanishi, Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi tahlil qilinadi. Temuriylar davrida savdo yo'llarining xavfsizligi ta'minlangani, karvonsaroylar qurilgani hamda turli mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar mustahkamlangani yoritib beriladi. Shuningdek, bu jarayonlarning mintaqaviy va global savdo tizimiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'z: Amir Temur, Temuriylar davri, savdo aloqalari, Buyuk Ipak yo'li, karvonsaroylar, xalqaro savdo, iqtisodiy rivojlanish, Markaziy Osiyo, savdo yo'llari, diplomatik aloqalar

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие торговых связей в период правления Амира Темура, анализируется восстановление Великого шелкового пути и расширение международных экономических отношений. Освещаются меры по обеспечению безопасности торговых путей, строительство караван-сараяв и укрепление экономических связей с различными странами. Также раскрывается влияние этих процессов на региональную и мировую торговлю.

Ключевые слова: Амир Темура, эпоха Тимуридов, торговые связи, Великий шелковый путь, караван-сараяв, международная торговля, экономическое развитие, Центральная Азия, торговые пути, дипломатические отношения

Abstract: This article examines the development of trade relations during the reign of Amir Temur, focusing on the revival of the Silk Road and the expansion of international economic interactions. It highlights the measures taken to ensure the security of trade routes, the construction of caravanserais, and the strengthening of economic ties with various regions. The study also explores the impact of these developments on regional and global trade systems.

Keywords: Amir Temur, Timurid era, trade relations, Silk Road, caravanserais, international trade, economic development, Central Asia, trade routes, diplomatic relations.

Amir Temur tomonidan asos solingan buyuk davlat (XIV asr oxiri – XV asr boshi) Markaziy Osiyo tarixidagi, ayniqsa Buyuk Ipak yo'li tarixidagi eng muhtasham davrlardan biri hisoblanadi. Mo'g'ullar bosqini va undan keyingi siyosiy parokandalik natijasida susayib ketgan savdo aloqalarini tiklash Amir Temurning strategik maqsadi edi. U ulkan hokimiyat sohibi sifatida savdoning foydasini chuqur anglab, o'z oldiga “dunyo savdo yo'llarini nazorat qilish” maqsadini qo'ygan. Ushbu strategiya Movarounnahrni oddiy

tranzit hududdan global iqtisodiy yetakchilikka intiluvchi markazga aylantirdi. Mazkur ilmiy maqola Temuriylar davlati siyosatining Ipak yo‘lini qayta tiklashdagi rolini, shuningdek Movarounnahr shaharlari — Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent — Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy integratsiyada qanday qilib “mustahkam ko‘prik” vazifasini bajarganini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi muarrixlar hamda zamonaviy temurshunoslarning ilmiy asarlariga tayanilgan. Ipak yo‘lini tiklashda Amir Temur xavfsizlikka eng yuqori ustuvorlik berdi. U Sharq va G‘arbni bog‘lovchi xalqaro yo‘lni tiklab, uni himoya qildi va ravnaqini ta‘minladi. Savdo yo‘llarining tinchligi va karvonlarning xavfsiz harakati uning doimiy shaxsiy nazorati ostida bo‘lgan. Bu siyosiy va harbiy kafolat Markaziy Osiyo uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mo‘g‘ullar davridan keyingi parchalanishdan so‘ng uzoq masofali savdo uchun eng muhim omil bo‘lgan xavfsizlik inqirozga yuz tutgan edi. Temur nazorati ostidagi yo‘llar G‘arb savdogarlari uchun ishonchli va tejamkor yo‘lga aylandi. Natijada savdo oqimlari Movarounnahrqa yo‘naltirildi va bu davlatga Yevropa hamda Osiyoni iqtisodiy va madaniy aloqalar orqali bog‘lovchi mustahkam ko‘prik yaratish imkonini berdi. Amir Temur hukmronligi davrida Movarounnahr shaharlari xalqaro savdoning asosiy markazlari sifatida ravnaq topdi. Samarqand, Kesh (Shahrisabz), Buxoro, Termiz, Toshkent va Marv kabi qadimiy shaharlar Yaqin va O‘rta Sharq miqyosida savdo, iqtisod va madaniyat markazlariga aylandi. Samarqandning ahamiyati nafaqat uning geografik joylashuvida, balki ishlab chiqarish markazlarining markazlashgan tizimida ham namoyon bo‘ldi. Amir Temur o‘z yurishlari davomida ko‘plab olimlar, fazilatli insonlar, hunarmandlar, ustalar va me‘morlarni Movarounnahrqa olib kelib, ularni turli shaharlarga joylashtirdi; ular doimo Sohibqiron homiyligi ostida e‘zozlangan. Movarounnahrning boshqa shaharlari ham global savdo tarmog‘ining muhim qismini tashkil etgan. Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlar tez sur‘atlarda savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlandi. Shahrisabz Amir Temurning tug‘ilgan shahri sifatida alohida e‘tibor qozonib, u yerda Oqsaroy saroyi kabi ulkan inshootlar bunyod etildi. Bu esa markaziy hokimiyat faqat Samarqandga emas, balki butun Movarounnahrning janubiy-markaziy hududlariga ham sarmoya kiritib, bir nechta muhim savdo markazlarini qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatadi. Janubda Termiz shahri muhim tranzit nuqta vazifasini bajargan. Amudaryoni kesib o‘tuvchi asosiy savdo yo‘llaridan birida joylashgan Termiz Temuriylar davlatini Hindiston va janubiy Xuroson bilan bog‘lab, janubiy savdo tarmoqlarini saqlash va mustahkamlashda strategik rol o‘ynagan. Sohibqironning harbiy muvaffaqiyatlari ham savdo aloqalarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Masalan, Usmonli sultoni Boyazid I ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya Temurga erkin aloqalar va tovar almashinuvini taklif etgan. Bu aloqalar shunchaki hurmat ifodasi emas edi, balki Yevropa uchun Movarounnahr Usmonli imperiyasini chetlab o‘tish imkonini beruvchi muhim savdo markazlarini qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatadi. Natijada, Amir Temur mamlakatning savdo-iqtisodiy rivojiga alohida e‘tibor qaratdi. Xususan, savdo karvonlari o‘tadigan yo‘llarda qat‘iy tartib o‘rnatdi hamda savdogarlarga zarar yetkazgan o‘g‘ri va bosqinchilarni shafqatsiz jazoladi. U savdo yo‘llarining holatiga jiddiy e‘tibor berib, savdoning rivoji mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanini ta‘kidladi. Shu

tariqa, xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Xorijiy savdogarlar uchun qulayliklar yaratish maqsadida u har bir shaharda karvonsaroylar qurdirgan, chetdan keltirilgan tovarlarni saqlashga alohida e'tibor qaratgan hamda butun mamlakatni o'zi tayinlagan ishonchli beklar va amirlar orqali boshqargan. Amir Temur davlatni boshqarishda barcha qatlam vakillaridan iborat Qurultoy, Davlat kengashi va Harbiy kengash maslahatlariga tayangan hamda “Kuch — adolatda” shioriga amal qilib, mamlakat taqdiri bo'yicha qarorlar qabul qilishda xalq irodasini ham inobatga olgan. Podshohlikda birlik va hamjihatlikni saqlash maqsadida u ayrimlarga mehribonlik ko'rsatgan, boshqalar bilan esa murosa qilib, qo'shinini birlashtirishga erishgan. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, Amir Temur ijtimoiy tenglikka ham katta e'tibor bergan va shunday degan: “Har bir mamlakat fuqarolari bilan muomala qilishda ularga nisbatan xolis bo'lsinlar, shuningdek, men har bir yurtdagi tilanchilarga ish berishni buyurdim, toki shu yo'l bilan tilanchilik yo'qolsin.” Bizningcha, bu farmon o'rta asr sharoitida barcha tabaqalar uchun mehnat qilishning huquqiy asosini yaratgan. Hatto tilanchilar ham ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanishga majbur etilgan. Sohibqironning ushbu ko'rsatmasi aholiga nafaqat mehnat qilish huquqini, balki iqtisodiy o'zgarishlar va turmush darajasining yaxshilanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan. Shu sababli XIV asrda kasb egallashga intilish kuchaygan. Amir Temur tomonidan parokanda hududlarning yagona davlatga birlashtirilishi, markaziy hokimiyatning shakllanishi va mustahkamlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti kuchaydi, savdo va hunarmandchilik rivojlandi, qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar kengaydi. Amir Temur mohir diplomat va davlatlar o'rtasida yaxshi munosabatlar hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tarafdori sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. U Yevropa va Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash yo'lida katta ishlar amalga oshirdi. Sohibqiron bir tomondan Xitoy va Hindiston, ikkinchi tomondan Fransiya va Angliya bilan aloqalar o'rnatgan, shuningdek, Usmonli davlati, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa mamlakatlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlagan. Amir Temur savdo-iqtisodiy aloqalar orqali xalqlar va mamlakatlar o'rtasida yagona makon yaratishda mislsiz yutuqlarga erishdi. U Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrix huzuriga elchilar yuborgan hamda o'z saroyida ispan, fransuz, ingliz, xitoy va boshqa davlatlardan kelgan elchilarni qabul qilgan. O'z davlatining qudratini mustahkamlash maqsadida Sohibqiron avvalo harbiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar zamirida avvalgi davr tajribasiga asoslangan donishmandlik yotib, unda yagona davlatni rivojlantirish, o'zaro tushunishni ta'minlash, tadbirkorlik uchun qulay mulkiy va huquqiy sharoitlar yaratish hamda savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

“Temur tuzuklari”da ham Amir Temur davrida undirilgan soliqlar va jarimalar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, o'sha davrda xiroj, molu-jihot, sovurin, konalga, boj va shilon kabi soliq va jarimalar joriy etilgan. Soliq va jarimalarni yig'ish hamda ularni sarflash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. “Men har bir mamlakatda uch nafar vazir tayinlashni buyurdim,” deyiladi “Temur tuzuklari”da. “Ulardan biri xalq ishlari bilan shug'ullansin, undan yig'iladigan soliqlarni nazorat qilsin va hisobot bersin. Soliq

yig‘uvchi soliq to‘lovchilarning nomlarini yozib borsin hamda fuqarolardan yig‘ilgan mablag‘ miqdorini hisobga olib borsin.

Ikkinchi vazir qo‘shinni boshqarsin. U qo‘shinga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisobga olib borsin. Uchinchi vazir esa yo‘qolganlar, yo‘lovchilar (sayohatchilar va savdogarlar), turli yo‘llar bilan yig‘ilgan hosillar, aqlan nosog‘lom kishilarning mulki, shuningdek qozilar va shayxlar tomonidan belgilangan jarimalarni tartibga solsin. Shunday qilib, zamonaviy til bilan aytganda, hisob-kitob ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish zarur bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ijara (soliq) miqdori odatda sug‘oriladigan yerlar uchun umumiy hosilning uchdan bir qismi (33 foiz), lalmi yerlar uchun esa to‘rtan bir qismi (25 foiz)ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar hozirgi daromad solig‘i bilan solishtirganda ancha past yoki unga yaqin ekanini bildiradi. Amir Temur savdo rivojiga alohida e‘tibor qaratgan. Bu davrda bir kunlik karvon yo‘llari bo‘ylab barcha sharoitlar yaratilgan: karvonsaroylar qurilgan, otlar, yem-xashak, oziq-ovqat va suv bilan ta‘minlangan, bosqinchilar esa qattiq jazolangan. Temur tuzuklari” orqali savdogarlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilganini ko‘ramiz. Sohibqiron shunday degan: “...agar bir savdogarning sarmoyasi yo‘qolsa, unga xazinadan yetarli miqdorda oltin berilib, sarmoyasi tiklansin. Agar dehqon yoki fuqaro yerga ishlov bera olmasa, unga urug‘ va mehnat qurollari berilsin.” Bu, albatta, bir tomondan davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga, ikkinchi tomondan esa aholi farovonligini oshirishga qaratilgan g‘amxo‘rlik namunasi edi. Buyuk ajdodimiz mamlakatda tinchlikni ta‘minlash va erkin savdo hududlarini yaratish uchun ham jiddiy choralar ko‘rgan. U davlat chegaralarini mustahkamlab, qal‘alar qurdirgan, jumladan 1380-yilda o‘z vatani Shahrisabzda Oqsaroyini bunyod ettirgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) Movarounnahrni mo‘g‘ul bosqinlaridan ozod etib, kuchli markazlashgan davlat barpo etgan Sharqning buyuk davlat arbobi va mohir sarkardalaridan biri edi. Uning davlati Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Mo‘g‘uliston, Eron, Iroq, Misr, Ozarbayjon, Gruziya, Dashti Qipchoq (Oltin O‘rda), Qrim, Janubiy Rossiya va Sharqiy Rim hududlarini o‘z ichiga olib, jami 27 mamlakatni qamrab olgan. U iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak rivojlangan imperiya yaratdi. “Temur tuzuklari”, Nizomiddin Shomiyning va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” kabi manbalar Temur davlatchiligi va boshqaruvi haqida muhim ma‘lumotlar beradi. Amir Temur davlatchiligi tarixini o‘rganish bugungi kunda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, Sohibqiron davlatchiligi tarixini uch asosiy bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich 1361–1381-yillarni qamrab olib, bu davrda Amir Temur Markaziy Osiyoni mo‘g‘ullardan ozod etib, hokimiyatni qo‘lga kiritgan. “Uch yillik”, “Besh yillik” va “Yeti yillik” yurishlar natijasida u atrofdagi hududlarni ham o‘z tasarrufiga birlashtirgan. 1381–1402-yillar ikkinchi bosqich bo‘lib, bu davr davlatning yuksalish davri hisoblanadi. Hududiy kengayish, iqtisodiy, siyosiy va harbiy qudratning oshishi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Bu paytda u Oltin O‘rda va turk sultoni Boyazid kabi kuchli davlatlar bilan raqobat qila olgan. Uchinchi bosqich 1402–1405-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Boyazid Yildirim qo‘shinlari tor-mor etilgan va davlat eng yuqori cho‘qqiga chiqqan. Bu paytda u yirik va qudratli davlatga aylangan hamda Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Sohibqiron o‘sha davr uchun eng

mukammal boshqaruv tizimini yaratgan. Xususan, u davlat xazinasini tarkibini, mahalliy hududlar ixtiyorida mablag‘larni aniq belgilab, ularning markaz bilan moliyaviy-iqtisodiy aloqalarini takomillashtirgan. U erkin savdoni qo‘llab-quvvatlagan va shunga intilgan. Amir Temur va Temuriylar davlati iqtisodiyotda ichki va tashqi savdoga tayangan. Uning davrida savdo yo‘llari, bozorlar, yo‘llar yaxshilangan, asosiy karvon yo‘llari bo‘ylab yangi karvonsaroylar qurilgan. Shaharlarning keng ko‘chalarida savdo rastalari tashkil etilgan, turli hududlarda hunarmandchilik markazlari qurilgan va bozor hududlari kengaytirilgan. Maxsus bozor rastalarida ma‘lum turdagi mahsulotlar sotilgan. Bu xususiyat nafaqat o‘sha davr tarixchilari, balki keyingi davr mualliflari tomonidan ham yuqori baholangan. Fransuz olimi Lyusyen Keren shunday yozadi: “Buyuk Amir narxlarni, ayniqsa oziq-ovqat narxlarini nazorat qilgan va savdo uyushmalarining samarali faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan. U Movarounnahr bo‘ylab yo‘lovchilar xavfsizligini ta‘minlash uchun rivojlangan yuk tashish va pochta tizimini yo‘lga qo‘ygan.” Amir Temur ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratgan, chunki u savdo-iqtisodiy aloqalarni davlat moliyasini mustahkamlash va xalq turmush darajasini oshirishning muhim vositasi deb bilgan. Shu bois Xitoydan ipak, Xo‘tandan olmos, yoqut kabi qimmatbaho toshlar, charm mahsulotlari va boshqa ko‘plab tovarlar keltirilgan. Amir Temurning pul-kredit siyosatidagi eng muhim choralaridan biri barcha hududlarda yagona pul birligini joriy etish bo‘lgan. Bu esa butun davlatning siyosiy va iqtisodiy jihatdan yagona va birlashganligini ifodalovchi muhim ramz edi. Amir Temur ma‘naviy madaniyat yuksalishini iqtisodiy farovonlik bilan chambarchas bog‘liq holda chuqur anglagan va shu sababli iqtisodiy hamda savdo aloqalarini jadal rivojlantirgan. Aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va savdo islohotlari hamda xalqaro hamkorlik aloqalari Amir Temurning bu boradagi faoliyatining mantiqiy va amaliy davomi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI:

- 1 Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
- 2 Shomiy, Nizomiddin. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1996.
- 3 Yazdiy, Sharafiddin Ali. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 2001.
- 4 Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Toshkent: Mehnat, 1992.
- 5 Ahmedov B. Amir Temur va Temuriylar davri. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
- 6 Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
- 7 Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
- 8 Keren L. Amir Temur saltanati. – Toshkent: Fan, 2005.
- 9 www.ziyonet.uz – O‘zbekiston ta‘lim portali
- 10 www.history.uz – O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ma‘lumotlar sayti